

## **KOMPETENSIYAVIY MAQSADGA ERISHISHDA BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING INNOVATSION FAOLIYATI**

Akbarova Go'zalxon,

Xushnazarova Feroza

Namangan viloyati Mingbuloq tumani 45-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada, boshlang'ich sinflarda kompetensiyaviy maqsadga erishish yo'llari va o'qituvchi uchun ta'lilda sifat va samaradorlik eng muhim omil ekanligi, ta'lim-tarbiyaga boshlang'ich sinfdan katta etibor qaratish lozimligi haqida ayrim tavsiyalar mavjud.

Данная статья, говорит о цели компетенции в методике начального образования и даёт возможность эффективного повышения качества обучения при современных требований предъявленных обучению и освещает некоторые аспекты этого вопроса.

In this article, there are some recommendations that are about the ways of gaining competence aims, and the importance of the quality and effectiveness on the education, paying more attention to the upbringing and education in the primary classes.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, kompetensiya, aniq maqsad, innovator, izlanish, faoliyat, kasbiy kompetentlikka.

Xozirgi vaqtida ta'lim jarayonidagi dolzarb muammolardan biri umumiy o'rta ta'lim maktablarida 11-sinf bitiruvchilarining oliv ta'lim muassasalariga kirishlarini faollashtirish, ularning hayotda maqsadlarini aniq qilib, ilmni mukammal egallashlariga, ta'lim-tarbiya jarayoniga e'tiborli bo'lishlariga intilishlarini kuchaytirishdan iborat. Albatta, bu borada ta'lim jarayonida turli ilmiy izlanishlar, chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Darhaqiqat, har bir davlatning istiqboli uning ta'lim tizimini qay darajada tashkil etilishi bilan o'zaro bog'liq. Shu bois ham yurtimiz ta'lim-tarbiya jarayonini dunyo davlatlar tajribasini o'rgangan holda ildamlik bilan rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Shunday ekan mifikni bitiruvchi yoshlarni kelajakda qaysi fanni chuqurroq o'rganishlari va qaysi kasb-hunarni tanlashlariga boshlang'ich sinf davridanoq yo'l ko'rsatib borish maqsadga muvofiqdir.



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning „Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo’lib, dunyo miqyosida o’z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo’sh kelmaydigan insonlar bo’lib kamol topishi, baxtli bo’lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz“ deya ta’lim sohasiga berayotgan e’tiborlari tufayli zamonaviy, innovatsion texnologiyalarni raqobat darajasida rivojlanishiga turtki bo’lmoqda. Ayni payta boshlang’ich ta’lim jarayoniga innovatsiyon texnologiyalarni joriy etilayotgani ta’lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib bormoqda. Shiddat bilan o’zgarib borayotgan hozirgi globallashuv va axborotlashuv zamonida yosh avlodni milliy qadriyatlarmiz va jahon madaniyati yutuqlari asosida dunyo yoshlari bilan tenglasha oladigan, hayotda bo’layotgan voqeа-hodisalarni yaxshi va yomonini ajrata oladigan etib tarbiyalashimiz lozim. Shunda yoshlarimiz zarur tayanch kompetensiyaga ega bo’lishadi. Buning uchun ta’lim jarayonini rivojlantirishda har bir o’qituvchidan kasbiy kompetentlikka ega bo’lish, uni doimo rivojlantirib borish, ya’ni innovatorlik xususiyatiga ega bo’lish talab etilmoqda. Ayniqsa, boshlang’ich sinf o’qituvchi o’quvchiga kompetensiyaviy maqsad asosida bilim berishida, oqituvchining o’zi iqtidorli, bilimli, qobiliyatli, zamon bilan hamnafas bo’lishi muhim. Chunki bu davr bolalar uchun kelgusidagi oladigan bilimlariga tayanch vazifasini o’taydi. Shuning uchun ham boshlang’ich sinf o’qituvchisi zimmasida katta mas’uliyat xissi yotadi.

O’qituvchi kompetensiyasi-turli innovatsion faoliyatlarni o’zlashtirib, uni boyitib borishi, izlanishi, yangi ma’lumotlarni izlab topishi va darslar jarayonida qo’llab, bolalarga yetkaza olishida namoyon bo’ladi. Bu esa, o’z navbatida, boshlang’ich sinf o’qituvchilaridan pedagogik faoliyatini innovatsiyon loyihibar asosida, ya’ni interfaol metodlar, multimediyali elektron dasturlar, axborot texnologiyalaridan foydalangan holda olib borish zarurligini namoyon etadi. Zero, ta’lim-tarbiya jarayonida samaradorikka erishish uchun bola uchun tushunarli, mazmunli va qiziqarli darslarni tashkil etishimiz eng muhimdir. Chunki biz o’qituvchi murabbiylarning asosiy shiyorimiz “Sifat va samaradorlik” bo’lmog’i darkor. Bunga erishish va innovator o’qituvchiga aylanishimiz uchun oldimizda hali amalga oshirilishi lozim bo’lgan quyidagi ko’plab vazifalar mavjud, ular: o’qituvchi darsga kompetensiyaviy maqsadlarni to’g’ri, aniq belgilagan holda tayyorlangan bo’lishi, boshlang’ich sinflarda AKTdan foydalinish va uning samarasini oshirish uchun har bir sinf xonalarining moddiy texnik ba’zasini yaxshilab va zamon talabi darajasida jihozlashi, multimediya ilova qo’llanmalardan oqilona foydalanib, darslar

jarayonida muntazam qo'llashi, ta'lim muassasalariga yetkazilgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari, o'qitishning texnik vositalarini to'g'ri, keng tadbiq etishi, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi qiyin bo'lgan, bo'sh o'zlashtirilgan mavzular uchun, yangi texnologiya asosida o'qitish uslubini o'ylab topishi, ilg'or o'qituvchilar bilan fikr almashish uchun, shuningdek bugungi kun zamonaviy o'qituvchisi eng yangi, oxirgi axborotlarni boladan oldin unga yetkazishga intilmog'i, ota-onalar bilan farzandlar kelajagiga dahldor holda uzviy hamkorlikda bo'lish zarur.

Darhaqiqat, ta'lim tizimidagi tub islohatlar har bir o'qituvchidan bilim, yuksak madaniyat, yuqori malaka, ijodkorlik, mas'uliyatni xis etishni talab etadi. Shu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchilariga ham yildan-yilga ko'p vazifalar yuklanmoqdaki, endi ular oddiy o'qituvchi emas, balki eng faol, eng yetuk, har tomonlama bilimga ega, o'quvchi uchun na'muna bo'ladigan innovatorga aylanmog'lari darkor.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. SH.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. "O'zbekiston". 2016-yil.14-dekabr.
2. "Mahorat maktablari" faoliyati samaradorligini oshirishning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Namangan. 2015-yil. 28-30 betlar.
3. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2018-yil. 2-sон. 4-5-sahifalar O'.Asqarova, G.Egamberdiyeva. Boshlang'ich ta'limda integratsiya. (O'quv qo'llanma). Namangan. 2007-yil.
4. Boshlang'ich ta'lim jurnali. 2021 yil 2-sон. 6-sahifa.